e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/nkkstb52

BADIIY KONSEPTNING SHAKLLANISHIDA OBRAZ, RAMZ VA MUALLIF POZITSIYASI (X. SULTONNING "ODAMLARDAN TINGLAB HIKOYA" TO'PLAMI MISOLIDA)

Abdullayeva Gulmira

Jizzax davlat pedagogika universiteti, doktorant.
e-mail: gulmira@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0007-3371-7584

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Xayriddin Sultonning "Odamlardan tinglab hikoya" to'plamida badiiy konseptning shakllanishida obraz, ramz va muallif pozitsiyasining o'zaro munosabati tadqiq etilgan. Badiiy konseptning nazariy asoslari yoritilib, uning obrazlar tizimi, ramziy detallar, syujet vaziyatlari va muallifning estetik munosabati orqali namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilingan. To'plamdagi 31 ta hikoyaning yetakchi badiiy konseptlari tasniflanib, ular ma'naviy-axloqiy, oilaviy-shaxsiy, milliy-madaniy, ijtimoiy-huquqiy, ekzistensial va diniy-falsafiy guruhlarga ajratilgan. "Shodiyona", "Mastona", "Fojiona", "Omad", "Monolog", "Millatchining jazosi" hamda vazirlar obrazi ishtirok etgan hikoyalar misolida adolat, vijdon, halollik, inson qadri, milliy o'zlik, do'stlik va mas'uliyat konseptlarining badiiy ifodasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy konsept, badiiy obraz, ramz, muallif pozitsiyasi, Xayriddin Sulton, "Odamlardan tinglab hikoya", milliy o'zlik, inson qadri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, estetik munosabat.

ОБРАЗ, СИМВОЛ И АВТОРСКАЯ ПОЗИЦИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО КОНЦЕПТА (НА ПРИМЕРЕ СБОРНИКА Х. СУЛТОНА «РАССКАЗЫ, УСЛЫШАННЫЕ ОТ ЛЮДЕЙ»)

Абдуллаева Гульмира

Джизакский государственный педагогический университет, докторант.

Аннотация.

В статье исследуется взаимосвязь художественного образа, символа и авторской позиции в формировании художественного концепта в сборнике Хайриддина Султона «Рассказы, услышанные от людей» («Odamlardan tinglab hikoya»). Рассматриваются теоретические основы художественного концепта, анализируются особенности его проявления через систему образов, символические детали, сюжетные ситуации и эстетическое отношение автора. Классифицированы ведущие художественные концепты 31 рассказа сборника, которые распределены по духовно-нравственным, семейно-личностным, национально-культурным, социально-правовым, экзистенциальным и религиозно-философским группам. На примере рассказов «Шодиёна», «Мастона», «Фожиона», «Омад», «Монолог», «Миллатчининг жазоси», а также произведений с участием образов министров раскрывается художественное воплощение концептов справедливости, совести, честности, человеческого достоинства, национальной идентичности, дружбы и ответственности.

Ключевые слова: художественный концепт, художественный образ, символ, авторская позиция, Хайриддин Султон, «Рассказы, услышанные от людей», национальная идентичность, человеческое достоинство, духовно-нравственные ценности, эстетическое отношение.

IMAGE, SYMBOL, AND AUTHORIAL POSITION IN THE FORMATION OF AN ARTISTIC CONCEPT (BASED ON KH. SULTON'S COLLECTION "STORIES HEARD FROM PEOPLE")

Abdullayeva Gulmira

Jizzakh State Pedagogical University, Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the interrelationship between artistic imagery, symbolism, and authorial position in the formation of artistic concepts in Khayriddin Sulton's collection Odamlardan tinglab hikoya (Stories Heard from People). The theoretical foundations of artistic concepts are explored, and their manifestation through the system of images, symbolic details, plot situations, and the author's aesthetic perspective is analyzed. The leading artistic concepts in the collection's 31 stories are classified into moral and spiritual, familial and personal, national and cultural, social and legal, existential, and religious and philosophical categories. Using the stories "Shodiyona," "Mastona," "Fojiona," "Omad," "Monolog," "Millatchining jazosi," and stories featuring ministerial characters, the article reveals the artistic representation of the concepts of

ISSN 3060-5059 (Online)

justice, conscience, honesty, human dignity, national identity, friendship, and responsibility.

Keywords: artistic concept, artistic image, symbol, authorial position, Khayriddin Sulton, Odamlardan tinglab hikoya, national identity, human dignity, moral and spiritual values, aesthetic perspective.

Kirish. Badiiy konsept adabiy asarda muayyan tushunchaning oddiy ifodasi emas, balki obrazlar tizimi, ramziy ma'nolar, syujet vaziyatlari va muallifning estetik munosabati orqali shakllanadigan ko'p qatlamli mazmuniy-estetik hodisadir. Xayriddin Sulton nasrida adolat, vijdon, do'stlik, oila, inson qadri, tarixiy xotira va ma'naviy tanlov kabi tushunchalar qahramonlarning hayotiy tajribasi, ichki ziddiyatlari va qarorlari orqali badiiy mazmun kasb etadi. Shu bois adib hikoyalarida konseptni tahlil qilishda obraz, ramz va muallif pozitsiyasini bir-biridan ajratib emas, balki yagona badiiy tizimning o'zaro bog'liq unsurlari sifatida o'rganish lozim. Badiiy obraz konseptni inson taqdiri va xatti-harakatlarida gavdalantiradi. Qahramonning ichki kechinmalari, boshqa insonlar bilan munosabati, o'z qilmishiga bergan bahosi va ma'naviy tanlovi adolat, vijdon yoki mas'uliyat kabi tushunchalarning hayotiy mazmunini ochadi. Ramz esa muayyan predmet, manzara yoki voqeaga bevosita ma'nodan tashqari qo'shimcha mazmun yuklab, konseptning ma'no doirasini kengaytiradi. Muallif pozitsiyasi obraz va ramzlar orqali ifodalangan ma'nolarni axloqiy-estetik jihatdan yo'naltiradi. Demak, konseptning badiiy ifodasi qahramon taqdiri, ramziy detallar va asarning umumiy g'oyaviy-estetik qurilishi birligida yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ramz haqidagi nazariy qarashlar ham uni matn kontekstida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ramzga "biror g'oya, tushuncha, hodisa kabilarni ifodalovchi, eslatuvchi shartli belgi, ishora" [1; 243] deb ta'rif beriladi. Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida esa ramz "(arabcha so'z bo'lib – imo-ishora, imlash) simvol, ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi" [2; 125] sifatida izohlanib, uning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardor bo'lganda reallashishi ta'kidlanadi.

H. Boltaboyev ham ramzning matn doirasida ko'chma ma'no kasb etishi va uning ma'nosi kontekst orqali anglanishini qayd etadi: "Ramz... faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardor bo'lganda reallashadi" [3; 290].

Shuning uchun Xayriddin Sulton nasridagi har qanday predmet yoki detalni ramz deb baholashdan oldin uning syujetdagi vazifasi, qahramon ruhiyati bilan aloqasi va asar mazmuniga qo'shgan hissasini ko'rsatish talab etiladi.

Muallif pozitsiyasi konseptning axloqiy-estetik yo'nalishini belgilaydi. Badiiy asar muallifning borliqni idrok etishi, voqelikka munosabati, shaxsiy qarashlari va ruhiy kechinmalarini ifodalovchi ijodiy hodisadir. Ijodkorning pozitsiyasi faqat bevosita bayon qilingan fikrlarda emas, balki voqealarning tanlanishi va rivojlanishi, qahramonlarga munosabat, konfliktning yechimi, kinoya, lirik chekinish va badiiy yakun orqali ham namoyon bo'ladi. Bu borada quyidagi fikr muhim: "Muallif pozitsiyasi va subyektivlik tushunchalari bir-biridan farq qilsa-da, ular o'zaro chambarchas bog'liq. Muallif pozitsiyasi – bu adabiy asarning g'oyaviy yo'nalishini belgilovchi umumiy nuqtayi nazar bo'lsa, subyektivlik – shu pozitsiyaning hissiy va estetik ko'rinishidir" [4]. Demak, muallif pozitsiyasini alohida jumlalar yoki qahramonning fikri bilangina tenglashtirish mumkin emas; u asarning butun badiiy tizimidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy konsept, badiiy obraz, ramz, muallif pozitsiyasi va estetik ideal masalalarini o'rgangan ishlar ushbu muammoni nazariy jihatdan asoslashga yordam beradi. M. Xurramova badiiy adabiyotda konsept tushunchasi va uning asar mazmuni bilan aloqadorligini yoritgan [5]. Sh. Mahmidjonov badiiy obrazning adabiyotshunoslikdagi talqinlarini qiyosiy tahlil qilgan [6; 520–524]. M. Muhammadiyevaning ramziy obrazlarga bag'ishlangan tadqiqoti ramzning ko'p qatlamli badiiy ma'no ifodalash imkoniyatlarini anglashga xizmat qiladi [7; 33–37]. M. Komilovaning muallif pozitsiyasi va subyektivlik muammosiga [8; 91–93], B. Xasanovaning esa yozuvchi estetik idealiga bag'ishlangan ishlari ijodkor munosabati, obrazlar tizimi va g'oyaviy-estetik qarashlar o'rtasidagi aloqani tushunish uchun nazariy zamin yaratadi [9; 140–143]. Bu tadqiqotlar masalaning alohida jihatlarini ochadi. Xayriddin Sulton nasrida obraz, ramz va muallif pozitsiyasining o'zaro ta'sirini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilish esa mazkur faslning asosiy vazifasidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Odamlardan tinglab hikoya" kitobida badiiy konseptlar inson taqdiri, kundalik turmush tafsilotlari, ijtimoiy munosabatlar va xotira orqali namoyon bo'ladi. Hikoyalarning bir qismida adolat va vijdon, boshqalarida oilaviy burch, iymon, milliy o'zlik yoki insonparvarlik yetakchi o'rin tutadi. Bu guruhlash tadqiqot uchun dastlabki tasnif vazifasini bajaradi.

"Odamlardan tinglab hikoya" to'plamidagi 31 hikoyaning yetakchi badiiy konseptlari

№	Hikoya nomi va beti	Yetakchi badiiy konsept	Qo'shimcha konseptlar
1	"Omad" (13-17-b)	Omad va taqdir	E'tiqod, baxt, sabr
2	"Monolog" (18-35-b)	Ijtimoiy adolat	Manfaatparastlik, tanish-bilishchilik, vijdon
3	"Millatchining jazosi" (36- 51-b.)	Milliy o'zlik	Milliy xotira, til, shaxsiy qadr-qimmat
4	"Uy sotiladi" (52- 66-b)	Inson qadri	Oila, mehnat, uy-joy, ijtimoiy adolat
5	"Shodiyona" (67- 77-b)	Do'stlik va mas'uliyat	Hamjihatlik, sadoqat, tashqi shodiyona va ichki munosabatlar

6	“Mastona” (78- 85-b.)	Vijdon va halollik	Poraxo‘rlik, haqiqat, axloqiy tanlov
7	“Fojiyona” (86- 96-b.)	Oilaviy mas’uliyat	Ichkilikbozlik, farzand taqdiri, ma’naviy inqiroz
8	“Ichki ishlar vazirining oshga borgani” (97- 105-b.)	Insongarchilik va mansab	Do‘stlik, manfaat, amal va vijdon ziddiyati
9	“Qishloq xo‘jalik vazirining ta’ziyaga borgani” (106- 111-b.)	Do‘stlik va xotira	Insoniylik, ijtimoiy mavqe, qadrlash
10	“Mudofaa vazirining janozada imomlik qilgani” (112- 131-b)	Diniy e’tiqod va insonparvarlik	Do‘stlik, burch, an’ana, ma’naviy mas’uliyat
11	“Ashyoviy dalil” (132- 139-b)	Haqiqat va qonuniy adolat	Dalil, kasbiy vijdon, huquqiy mas’uliyat
12	“Haqiqatchi” (140- 149-b)	Adolat va vijdon	Haqiqatni himoya qilish, kasbiy burch, inson haq-huquqi
13	“Birinchi million” (150- 159-b)	Halollik va moddiy manfaat	Pora, vijdon, axloqiy tanlov
14	“Tarjimai hol” (160- 205-b)	Inson taqdiri va hayot matonati	Mehnat, ona obrazi, sabr, avlodlar xotirasi
15	“Valijon kasal bo‘ldi” (206-213-b)	Mehr-shafqat va ijtimoiy mas’uliyat	Sog‘liq, insonparvarlik, yordam, befarqlik
16	“Sudda” (214- 241-b)	Oilaviy adolat	Mulk, uy-joy, ota-ona qadri, huquq va mas’uliyat
17	“Arafa” (242- 244-b)	Ota xotirasi	Avlodlar davomiyligi, sog‘inch, hayotiy saboq
18	“Ikki kitob - ikki dunyo” (245-b)	Madaniy tafovut va dunyoqarash	Sharq va G‘arb tafakkuri, hissiyot, amaliylik
19	“90 yashar yubilar” (246- 247-b)	Umr qadri	Keksalik, inson umri, rasmiyatchilik
20	“Otamning aytganini qilishim kerak” (248- 262-b)	Ota vasiyati va farzandlik burchi	Oilaviy sadoqat, hurmat, mas’uliyat
21	“O‘zbek xalqining milliy g‘oyasi” (263- 272-b)	Milliy o‘zlik va qadriyatlar	Milliy g‘oya, to‘y-marosim, isrofgarchilik, ma’naviyat
22	“Mantiq darsi” (273- 285-b)	Tafakkur va hayotiy mantiq	Bilim, ta’lim, nazariya va amaliyot
23	“Odam bo‘lgan odam” (286-301-b)	Insonparvarlik	Qahramonlik, burch, fidoyilik
24	“Otabekning janozasi” (302-306-b)	Inson taqdiri va xotira	Hamdardlik, o‘lim, jamoaviy xotira
25	“Bedarak yo‘qolgan” (307-314-b)	Urush fojiasi va yo‘qotish	Oilaviy sog‘inch, tarixiy xotira, umid
26	“Ikki karra qahramon” (315-324-b)	Qahramonlik va burch	Jasorat, fidoyilik, ma’naviy matonat
27	“Har ish bo‘lsa - Xudodan” (325- 336-b)	Tavakkul va e’tiqod	Sabr, taqdir, shukronalik
28	“Bir dollarlik hikoya” (337-346-b)	Inson qadri va mehr	Moddiylik, saxovat, insoniy munosabat
29	“Siyosat” (347- 354-b)	Siyosat va manfaat	Ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy pozitsiya, mas’uliyat
30	“Bayrut xotirasi” (355- 367-b)	Madaniyatlararo muloqot	Diniy bag‘rikenglik, tarixiy xotira, hamjihatlik
31	“Maktub” (368- 374-b)	Xotira va ma’naviy hamdardlik	Duo, minnatdorlik, vafot etgan insonni yod etish

“Odamlardan tinglab hikoya” kitobidagi hikoyalarni badiiy konseptlar bo‘yicha guruhlash ularning mazmuniy yaqinligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Biroq bir hikoyada bir nechta konsept bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli guruhlashda yetakchi konseptni syujet, qahramonning ma’naviy tanlovi, ramziy detallar va muallif pozitsiyasi birligida belgilash zarur. Shuningdek, badiiy konseptlarni mazmuniy xususiyatlariga ko‘ra beshta yirik guruhga birlashtirish mumkin:

1. Ma’naviy-axloqiy konseptlar: vijdon, halollik, adolat, haqiqat, mas’uliyat, insonparvarlik.
2. Oilaviy va shaxsiy konseptlar: oila, ota vasiyati, farzandlik burchi, do‘stlik, mehr-shafqat, inson qadri.
3. Milliy-madaniy konseptlar: milliy o‘zlik, milliy xotira, milliy qadriyatlar, madaniyatlararo muloqot.
4. Ijtimoiy-huquqiy konseptlar: qonuniy adolat, manfaat, mulk, kasbiy vijdon, ijtimoiy mas’uliyat.
5. Ekzistensial va diniy-falsafiy konseptlar: taqdir, omad, e’tiqod, tavakkul, umr qadri, xotira va yo‘qotish.

ISSN 3060-5059 (Online)

“SHODIYONA” HIKOYASI: QUVONCH, DO‘STLIK VA MA’NAVIY MAS’ULIYAT (67–77-BETLAR)

“Shodiyona” hikoyasida quvonch tushunchasi ziyofat va oshna-og‘aynichilik muhitida namoyon bo‘ladi, biroq voqealar rivoji tashqi xursandchilik bilan ma’naviy mas’uliyat o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi. Qahramonning ichkilik ta’sirida o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmasligi va do‘stlarini xavfli vaziyatga tortishi shaxsiy odatning ijtimoiy oqibatga aylanganini ko‘rsatadi. Muallif eski choyxona manzarasini tasvirlab, xotira bilan bugungi hayot o‘rtasidagi tafovutni ta’kidlaydi: “...bu kichik, ko‘rimsiz choyxonadagi manzara mutlaqo o‘zgarmabdi: o‘sha qing‘ir-qiyshiq yog‘och so‘rilar, o‘sha iflos ko‘rpacha-bolishlar, labi uchgan choynak-piyolalar...”. O‘zgarmagan muhit qahramonlarning o‘zgargan hayotiy tajribasi va mas’uliyati bilan qiyoslanadi. Choyxona va ziyofat hikoyada voqea kechadigan oddiy makon bo‘lib qolmay, qahramonlarning odatlari va ichki dunyosini namoyon etuvchi ma’naviy muhitga aylanadi. Qahramonning mast holda mashina haydashga urinishi va poyabzal poshnasini asfaltga tekkizib, uchqun chiqarishdan zavq olishi tashqi shodiyonaning xavfli mas’uliyatsizlikka aylanishini ko‘rsatadi. Shu tariqa “shodiyona” tushunchasi ikki ma’noni birlashtiradi: do‘stlar davrasidagi quvonch va quvonchni o‘zini idora qilmaslik bilan adashtirish oqibatida paydo bo‘ladigan xavf.

Muallif qahramonni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoralashdan ko‘ra, uning o‘zini anglashi bilan xatti-harakatlari o‘rtasidagi ziddiyatni yumor va kinoya orqali ochadi. Mast haydovchilarning yo‘lga chiqishiga to‘sqinlik qilinishi hikoyaning axloqiy mezonini aniqlashtiradi: do‘stlik birga ziyofat qilish bilangina emas, balki do‘stning hayoti va xavfsizligi uchun mas’uliyat olish bilan ham belgilanadi. Demak, hikoyada quvonch konsepti do‘stlik va ma’naviy mas’uliyat bilan bog‘liq holda ochiladi; ziyofat ramzi bu tushunchaning ziddiyatli mazmunini, muallifning kinoyali pozitsiyasi esa haqiqiy do‘stlikning axloqiy mezonini belgilaydi.

“MASTONA” HIKOYASI: VIJDON, HALOLLIK VA O‘ZINI NAZORAT QILISH

“Mastona” hikoyasida pora berish va olish, ta’magirlik, firibgarlik hamda insonning o‘z qilmishiga munosabati o‘zaro bog‘liq holda tasvirlanadi. Tadbirkor qizini universitetga kiritish uchun vositachiga pul beradi, va’da bajarilmagach, mablag‘ini qaytarishga urinadi. Biroq u ham noqonuniy kelishuvga rozi bo‘lgani uchun muammoni ochiq hal qilishdan qochadi. Shu ziddiyat qahramonni bir vaqtning o‘zida jabr ko‘rgan inson va o‘z manfaati yo‘lida axloqiy mezondan chekingan shaxs sifatida ko‘rsatadi. Hikoya sarlavhasidagi “mastona” so‘zini faqat ichkilik holati bilan cheklamay, asar kontekstida o‘z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish qobiliyatining susayishi sifatida ham talqin qilish mumkin. Qahramon firibgarlikni qoralasa-da, o‘z manfaatini himoya qilishda halollik va qonuniylikka doim ham amal qilmaydi. Uning o‘z qilmishini eslay olmay qolishi, choyxonadagi hisob-kitobni noto‘g‘ri tushunishi va keyinchalik xatosini anglashi ma’naviy nazoratning zaiflashuvini ko‘rsatadi.

Muallif yumordan qahramon xatosini yengillashtirish uchun emas, balki uning o‘zini oqlashga urinishi bilan haqiqat o‘rtasidagi tafovutni ochish uchun foydalanadi. Qahramonning “apirisning ustidan yana bir apirisga arz qilib boribmiz-ku” [10; 86] degan xulosasi uning voqeaga munosabatini qayta ko‘rib chiqa boshlaganini ko‘rsatadi. Ilmiy jihatdan hikoyada vijdon va halollik konseptlari boshqalarning nohaqligini fosh etish istagi bilan cheklanmay, insonning o‘z xatti-harakatlariga ham xolis baho berish zarurati orqali ochiladi. Sarlavhaning ko‘chma ma’nosi va muallif kinoyasi shu ma’noni chuqurlashtiradi.

“FOJIONA” HIKOYASI: INSON QADRI, OILA VA MAS’ULIYAT

“Fojiona” hikoyasida ichkilikka ruju qo‘yishning oqibatlari shaxsiy hayot doirasidan chiqib, ona, turmush o‘rtog‘i va farzandlar taqdiriga ta’sir ko‘rsatadi. Onasi vafot etgan kuni ham ichkilik ta’sirida bo‘lgan qahramonning iztirobi uning inson sifatidagi zaifligi va mas’uliyatni anglashdagi muammosini ochadi: “Ayamdi berib qo‘ydim, otam!” (90-bet). Bu iqrorda onadan ayrilish alami bilan birga, o‘zini idora qila olmagan insonning pushaymoni ham seziladi.

Biroq qahramon o‘z qilmishini to‘liq anglash o‘rniga aybni boshqalarga yuklashga moyilligini saqlab qoladi. Turmush o‘rtog‘i Solixaning e’tiroziga u: “Hoy, baraka topkur, ichmaydigan erkakni topib ber menga, “Qizil kitob”ga kirgizay” [10; 91], deb javob beradi. Bu gap uning zararli odatni oddiy hol sifatida ko‘rsatishga urinishini anglatadi. Hikoyadagi fojia tushunchasi faqat o‘limni emas, balki oilaviy munosabatlarning yemirilishi, farzandlarning ota mehridan uzoqlashishi va insonning o‘z taqdirini boshqarish qobiliyatini yo‘qotishini ham qamrab oladi.

Qahramonning davolanib, yana eski odatiga qaytishi o‘zgarishning murakkabligini ko‘rsatadi. Bu holat “eski hammom, eski tos” [10; 95] xalqona iborasi bilan ifodalanadi. Ibora takrorlanuvchi xatolarni va muammoning hal etilmay qolayotganini anglatadi. Shu bilan birga, muallif qahramonning insoniy qadrini butunlay inkor etmaydi: do‘stlari uni davolatishga va oilasiga qaytarishga harakat qiladi, xotini esa sog‘lig‘i tiklanganidan minnatdorlik bildiradi. Turmush o‘rtog‘ining maktubida qahramon “o‘zi yomon odam emas, faqat ko‘ngilchan, oshna-og‘aynilarining yuzidan o‘tolmaydi” [10; 92] degan mazmunda tavsiflanadi. Bu fikr qahramonning ijobiy jihatlari bilan zararli odatlari o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Demak, muallif pozitsiyasi, bir tomondan, qahramonning mas’uliyatsizligini tanqid qilsa, ikkinchi tomondan, uning taqdirini murakkab insoniy qismat sifatida tasvirlaydi. “Fojiona”da inson qadri va oilaviy mas’uliyat konseptlari xatoning oqibatlari, takrorlanuvchi odat va insonga ko‘rsatiladigan mehr o‘rtasidagi ziddiyat orqali ochiladi.

MANSAB, DO‘STLIK VA XOTIRA KONSEPTLARI

“Ichki ishlar vazirining oshga borgani” hikoyasida Erkin Jalilovichning mansabdor shaxs sifatidagi maqomi bilan oddiy inson sifatidagi ehtiyojlari o‘rtasidagi ziddiyat ochiladi. Qahramonning “Lekin shu amal deb odamgarchilikdan chiqib qolish yomon-da” [10; 97] degan fikri keyingi voqealarni baholash uchun axloqiy mezon vazifasini bajaradi. Uning sinfdoshi Toshpo‘lat Kabirovdan olgan maktubida esa mansab va manfaatga asoslangan munosabatlar tanqid qilinadi: “Bugun soyangga salom berib, atrofingda girdikapalak bo‘lib yurgan oshnolaring sening emas, amalingning do‘sti, manfaat do‘sti” [10; 100–101].

Maktub qahramonni bolalik xotiralarini qayta baholashga undaydi. Hikoyadagi kreslo ramzi insonning shaxsi bilan egallab turgan lavozimi o‘rtasidagi masofani ko‘rsatadi: taklifnomalar go‘yo qahramonning o‘ziga emas, u egallagan

ISSN 3060-5059 (Online)

mansabga kelayotgandek tasvirlanadi. Kreslo mansabning tashqi nufuzi va manfaatga asoslangan yaqinlik ramziga aylanadi. Osh dasturxoni esa mehmondo‘stlik va milliy an’anani ifodalash bilan birga, qahramonni kasbiy burch va shaxsiy munosabatlar o‘rtasidagi murakkab vaziyatga olib kiradi. U ilgari jinoyatchi sifatida jazolagan Tolik Tashkentskiy bilan bir dasturxonda o‘tirib qoladi. Muallifning yumor va kinoyasi mansabning odamgarchilikni siqib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq mansabning o‘zi mutlaqo salbiy hodisa sifatida tasvirlanmaydi.

“Qishloq xo‘jalik vazirining ta’ziyaga borgani” hikoyasida Mels Rahimovich va uning do‘sti Bobojon obrazlari orqali do‘stlik xotirasi bilan amaldagi munosabatlar o‘rtasidagi tafovut ochiladi. Bobojonning ilmiy yutuqlari va kamtarligi uning haqiqiy qadrini lavozim yoki tashqi shuhrat bilan o‘lchab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Do‘stining uyini topa olmay, boshqa xonadonga kirib qolish voqeasi ramziy ma’no kasb etadi: qahramon do‘stlik xotiralarini saqlagan bo‘lsa-da, do‘stining kundalik hayotidan uzoqlashgan. Ta’ziya marosimi shu tariqa xotira va insoniy munosabatlarni qayta baholash vaziyatiga aylanadi. Muallif do‘stlikni o‘tmishni eslash bilan emas, balki inson hayotida amalda ishtirok etish bilan o‘lchaydi.

“Mudofaa vazirining janozada imomlik qilgani” hikoyasida Sobit Davronovning bolalik do‘sti Xidir va uning otasi Safar og‘a oldidagi burchi ma’naviy tanlov markaziga chiqadi. Qahramonlar o‘qigan maktabning ko‘p millatli muhiti Nuh payg‘ambar kemasiga qiyoslanadi. Bu qiyos turli millat vakillarini birlashtirgan sinfdoshlik va do‘stlik muhitini ifodalaydi. Safar og‘a vafot etgach, Xidir do‘stidan janoza marosimida yordam berishni so‘raydi. Sobit marosimni o‘tkazish tartibini bilmasligini va harbiy maqomi bilan bog‘liq xavotirlarini anglasa-da, do‘stining iltimosini rad eta olmaydi. Uning iqrori ma’naviy holatini ochadi: “Sobit Davronov degan nom bilan tanilib yurgan mening dini islomdan bilgan bor-yo‘q ilmim mana shundan iborat edi” [10; 129]. Bolaligida Xosiyat buvidan eshitgan kalima va xotiralar qahramonning ichki tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu xotira diniy bilimning o‘rnini bosuvchi omil emas, balki ma’naviy sinov paytida uning qaror qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatgan oilaviy-madaniy tajriba sifatida talqin etiladi. Janoza marosimi esa vafot etgan insonni kuzatish bilan birga, tirik insonning do‘stlik va burch oldidagi mas’uliyatini sinovdan o‘tkazadi.

OBRAZ, RAMZ VA MUALLIF POZITSIYASINING ALOHIDA HIKOYALARDAGI UYG‘UNLIGI

Faslning nazariy mezonlarini aniqlashtirish uchun to‘plamdagi bir necha hikoyani qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ularda konsept turlicha obrazlar tizimi, ramziy detallar va muallifning uslubiy munosabati orqali shakllanadi: “Omad”da kulgili syujet va sarlavha, “Monolog”da makon va adabiy nomlar, “Millatchining jazosi”da ism va hujjatlar, “Uy sotiladi”da esa uy obrazi konseptni yuzaga chiqaruvchi asosiy vositalardir.

“OMAD” HIKOYASI: OMAD VA TAQDIR KONSEPTINING OBRAZLI IFODASI

Ushbu hikoyada yetakchi konsept sarlavhadayoq belgilangan “omad” tushunchasidir. Uning mazmuni roviyning munosabati, qahramonning ish izlashi, mahalliy jamoa bilan aloqasi va kutilmagan kulgili vaziyat orqali ochiladi. Obrazlar tizimida Shokirbek va Botirbek insonning mehnat qilish istagini, imom O‘rozqul esa jamoaviy yordam va diniy-ma’naviy mas’uliyatni ifodalaydi. Muallif pozitsiyasi voqeaning hazilomuz yakunlanishi va sarlavha ma’nosining qayta anglanishi orqali namoyon bo‘ladi.

“Omad” hikoyasida milliy o‘zlik konsepti qahramonlarning milliy-madaniy muhitga mansubligi, mumtoz adabiyotga munosabati va mahalliy jamoa bilan aloqalari orqali namoyon bo‘ladi. Hikoya voqealari Qirg‘izistonning Qorasuv shahri va Oqyor qishlog‘i bilan bog‘liq bo‘lib, unda turli hududlarda yashayotgan kishilarni ma’naviy qadriyatlar, diniy-ma’rifiy an’analar va insonparvarlik tuyg‘ulari birlashtirib turadi. Muallif voqeiy hodisaga asoslangan hikoyani bayon qilar ekan, insonning hayotdagi o‘rni va imkoniyatlarini faqat shaxsiy qobiliyat bilan emas, balki ijtimoiy muhit va taqdir bilan bog‘liq holda tasvirlaydi.

Asarda milliy o‘zlikning muhim ko‘rinishlaridan biri mumtoz adabiyotga munosabatda aks etadi. Qahramon Shokirbekning Abdulla Qodiriy ijodiga ixlosi borligi ta’kidlanadi: “Sobiq muallimning mumtoz adabiyotga, ayniqsa, Abdulla Qodiriyga ixlosi borligini ko‘rib, ota-bolaga mehrim tovlanib ketdi” [10; 14]. Ushbu iqtibosda Abdulla Qodiriy nomi milliy adabiy merosning muhim timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Shokirbekning yozuvchi ijodiga bo‘lgan ehtiromi uning shaxsiy qiziqishi bo‘lish bilan birga, milliy adabiyotga mansublik tuyg‘usini ham ifodalaydi. Qodiriy merosining hikoya qahramoni ma’naviy olamida qadrlanishi milliy o‘zlikning adabiy xotira va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq jihatini ochadi.

Tarixiy xotira konseptini talqin qilishda ham mazkur epizod muhim ahamiyatga ega. Abdulla Qodiriyning tilga olinishi o‘tmishda yaratilgan adabiy merosning keyingi avlodlar ongida yashashini ko‘rsatadi. Bu yerda tarixiy xotira muayyan tarixiy voqeaning esga olinishi orqali emas, balki milliy adabiyot namoyandalariga bo‘lgan hurmat va ularning ma’naviy merosini qadrlash orqali namoyon bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, hikoyadagi adabiy xotirani milliy o‘zlikning davomiyligini ta’minlovchi madaniy omil sifatida baholash mumkin. Biroq asarda Qodiriy ijodining muayyan asari yoki tarixiy voqea batafsil tahlil qilinmagani sababli mazkur epizodni keng ma’nodagi tarixiy xotiradan ko‘ra, milliy adabiy xotiraning ifodasi sifatida talqin qilish aniqroqdir.

Vatan konseptiga kelganda, hikoyadagi makonlar va qahramonlarning mahalliy muhit bilan munosabatiga e’tibor qaratish lozim. Shokirbek o‘g‘li Botirbek uchun katta shahardan emas, aynan o‘z qishlog‘idan ish topishni istaydi. Uning: “Yo‘g‘-ye, Toshkentda nima qiladi, shu o‘zimizning qishloqdan bironta ish bo‘lsa, bas” [10; 14] degan gapi qahramonning mahalliy muhitga bog‘liqligini ifodalaydi. Bu so‘zlarda o‘z qishlog‘ida yashash va mehnat qilish istagi namoyon bo‘lsa-da, uni bevosita vatanparvarlik g‘oyasi bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Iqtibos, avvalo, insonning o‘z ijtimoiy muhitida o‘rin topishga intilishini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, qahramonning Oqyor qishlog‘iga ish izlab borishi va mahalliy imom O‘rozquldan yordam olishi jamoaviy munosabatlarning ahamiyatini ochadi. Qahramonlar o‘rtasidagi aloqalar shaxsiy manfaatdan tashqari, o‘zaro yordam va savob ish qilish tushunchalariga ham asoslanadi. Hikoyadagi ushbu munosabatlar mahalliy jamoani inson taqdiriga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy muhit sifatida gavdalantiradi. Demak, Vatan konseptini mazkur asar doirasida talqin etishda makonga mansublik, o‘z qishlog‘ida yashash istagi va jamoa bilan ma’naviy aloqadorlik kabi belgilarni ko‘rsatish

mumkin. Ammo bu belgilar asarda keng ko‘lamli milliy-vataniy g‘oya darajasiga ko‘tarilmaganini ham hisobga olish zarur.

Hikoyada milliy o‘zlikning yana bir jihati til va diniy-ma’rifiy muhit orqali ochiladi. Qorasuvda yashovchi shayx Alouddin Mansurning Qur’oni karimning o‘zbekcha tafsirini tayyorlab, nashr etgani haqidagi ma’lumot keltiriladi. Bu epizod o‘zbek tilining diniy-ma’rifiy bilimlarni ifodalash va keng ommaga yetkazish vositasi sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Qur’on tafsirining o‘zbek tilida tayyorlanishi milliy tilning ma’naviy hayotdagi vazifasini namoyon etadi. Shu jihatdan o‘zbek tili hikoyada nafaqat muloqot vositasi, balki diniy-ma’rifiy merosni o‘zlashtirish va avlodlarga yetkazish imkonini beruvchi madaniy omil sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Mazkur epizodning milliy o‘zlik bilan bog‘liqligi shundaki, diniy bilimning o‘zbek tilida bayon qilinishi uni muayyan til jamoasi uchun tushunarli va ma’naviy jihatdan yaqin shaklga keltiradi. Biroq bu holatni milliy o‘zlikni faqat diniy mansublik bilan izohlash sifatida talqin etish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Asarda diniy-ma’rifiy qadriyatlar, o‘zbek tili va insonlarga yordam berish g‘oyasi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Hikoyaning asosiy g‘oyasi omad va inson taqdiri o‘rtasidagi munosabatga qaratilgan. Botirbek jismonan baquvvat, mehnat qilishga qodir yigit sifatida tasvirlansa-da, ishsizlik sababli otasi unga yordam so‘rab murojaat qiladi. Qahramonga qabristonda go‘rkovlik vazifasi topib beriladi. Bir yildan keyin esa u yana ish so‘rab keladi. Bu safargi iltimosining sababi shunday izohlanadi: “Endi... shu, siz ishga qo‘yib ketganingizdan keyin... qishlog‘imizda... bironta ham odam o‘lmadi-da...” [10; 16].

Ushbu kulgili vaziyat hikoyaning sarlavhasidagi “omad” tushunchasini mazmunan ochadi. Botirbekning ishlashi uchun barcha sharoit mavjud, biroq uning vazifasini bajarishi qishloq aholisining vafot etishi kabi inson irodasiga bog‘liq bo‘lmagan holatga taqaladi. Shu tariqa muallif insonning qobiliyati va g‘ayrati bilan hayotdagi natija o‘rtasida har doim ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik bo‘lavermasligini yumor vositasida ko‘rsatadi. Bu g‘oya Vatan yoki tarixiy xotira konseptlarining bevosita ifodasi bo‘lmasa-da, mahalliy jamoa hayoti, inson taqdiri va ijtimoiy munosabatlar tasviri orqali hikoyaning milliy-ma’naviy muhitini shakllantiradi.

“MONOLOG” HIKOYASI: IJODIY O‘ZLIK, MAKON VA ADABIY XOTIRA

“Monolog” hikoyasida obraz, ramz va muallif pozitsiyasi qahramonning o‘z ijodiy yo‘lini anglashi, Mirzacho‘l makoniga munosabati va milliy adabiy meros bilan muloqoti orqali birlashadi. Qahramonning nutqi monologik tus olsa-da, uning fikrlari ota nasihati, muharrir bilan munosabati va adabiy ustozlar haqidagi xotiralar bilan boyib boradi. Shu sababli hikoyadagi «men» faqat shaxsiy kechinmalar egasi emas, balki muayyan adabiy muhit va ijtimoiy tajriba ta’sirida shakllangan obrazdir.

Asarda Vatan konseptining badiiy ifodasi, avvalo, Mirzacho‘l makonining qahramon ruhiyatiga ta’sirida ko‘rinadi. Akbar Maksumov avvalgi ish joylaridagi muvaffaqiyatsizliklar va ijtimoiy to‘siqlardan keyin Mirzacho‘lda yangi hayot boshlaydi. U bu yerdagi muhitni shunday tasvirlaydi: “Bu yerda havo ham, hayot ham, odamlar ham boshqacha – yangi edi-da. Cho‘lda yursang – yuraging ham kengayib ketarkan” [10; 27]. Iqtibosdagi “havo”, “hayot”, “odamlar” tushunchalarining bir qatorda kelishi makonning faqat tabiiy xususiyatlarini emas, balki ijtimoiy va ruhiy muhitini ham ifodalaydi. “Yuraging ham kengayib ketarkan” ifodasi esa tashqi makon bilan ichki kechinma o‘rtasidagi mutanosiblikni badiiylashtiradi. Mirzacho‘l qahramon uchun faqat mehnat qiladigan hudud emas, balki o‘z imkoniyatlarini namoyon etish, ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va hayotga yangicha munosabatni shakllantirish mumkin bo‘lgan ma’naviy makonga aylanadi.

Ushbu misralardagi “bahor” va “ochilmagan qo‘riq” obrazlari yangilanish, o‘sish va imkoniyatlar timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. “Qalb”ning bahorga qiyoslanishi tabiatdagi o‘zgarish bilan inson ruhiyatidagi uyg‘onishni birlashtiradi. “Ochilmagan qo‘riq” esa o‘zlashtirilishini, ijodiy mehnat va izlanishni kutayotgan salohiyatni anglatadi. Shu tariqa Mirzacho‘l makonining o‘zlashtirilishi bilan qahramonning ichki imkoniyatlari ochilishi o‘rtasida ramziy uyg‘unlik yuzaga keladi. Vatan konsepti bu o‘rinda tayyor qadriyat sifatidagina emas, balki inson mehnati, ijodiy faolligi va ruhiy kamoloti bilan mazmunan boyiydigan makon sifatida talqin etiladi.

Asardagi mazkur epizodlarning badiiy ahamiyati shundaki, qahramonning Mirzacho‘lga munosabati tashqi muhitni tasvirlash bilan cheklanmaydi. Yangi makon uning ijtimoiy mavqeyi va ijodiy imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Muallif qahramonning “Gazetada bosilgan maqola-yu ocherklar, she’r-u hikoyalarim bilan bir yilda otning qashqasiday bo‘lib hammaga tanilib qoldim” [10; 27] degan xotirasini keltiradi. Bu ma’lumot Mirzacho‘ldagi muhitning ijodkor uchun yangi imkoniyatlar ochganini tasdiqlaydi. Demak, asarda Vatan makoni insonning o‘z qobiliyatini anglashi, mehnati bilan jamiyat hayotiga qo‘shilishi va ma’naviy o‘zligini namoyon etishi bilan bog‘liq holda badiiylashtirilgan. Biroq bu munosabat asarda murakkab, hatto kinoyaviy tusga ega. Akbarning adabiyotga qiziqishi va shoir bo‘lish istagi otasining maslahati bilan jurnalistika yo‘nalishiga buriladi. Keyinchalik qahramon o‘z taqdiri haqida o‘ylar ekan, otasining qarorini tanqidiy baholaydi. Bu holat adabiy merosga hurmat bilan ijodkorning individual taqdiri o‘rtasidagi ziddiyatni yuzaga keltiradi. Muallif shu orqali tarixiy xotirani o‘tmishdagi buyuk ijodkorlarni nomma-nom e’tirof etish darajasida qoldirmaydi, balki ularning merosi keyingi avlod hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatishini ham badiiy muammo sifatida qo‘yadi.

Asarda Alisher Navoiyga munosabat ham milliy adabiy xotiraning davomiyligini ko‘rsatadi. Qahramon “tag‘ofuli orifona” tushunchasini izohlar ekan, bu adabiy usul klassik adabiyotda, xususan, Navoiy g‘azallarida ko‘p qo‘llanishini ta’kidlaydi. Navoiy nomining zamonaviy qahramon nutqida tilga olinishi mumtoz adabiy tajribaning keyingi davr adabiy tafakkurida saqlanib qolganini anglatadi. Shu bilan birga, qahramonning “Alisher G‘iyosiddinovich” tarzida hazilomuz murojaat qilishi adabiy merosga yaqinlikni kundalik nutq va yumor bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada mumtoz adabiyot asarda uzoq o‘tmishga tegishli o‘zgarmas hodisa emas, balki zamonaviy insonning nutqi, tafakkuri va madaniy xotirasida yashab kelayotgan ma’naviy tajriba sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy o‘zlik konsepti asarda til, milliy adabiy an’ana va ijodkorning o‘z madaniyatiga mansublik tuyg‘usi bilan

ISSN 3060-5059 (Online)

bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Akbar Maksumovning Mirzacho‘lda tashkil etilgan gazetaning “Rus va o‘zbek tillarida” chiqarilishini alohida ta’kidlashi hududning ko‘p tilli ijtimoiy muhitini ko‘rsatadi. Gazetaning nomi ham asarda muhim ramziy vazifa bajaradi: “Mirzacho‘l haqiqati” – “Mirzachulskaya pravda” [10; 32]. O‘zbekcha va ruscha nomlarning yonma-yon kelishi matbuotning ikki tilli faoliyatini ifodalaydi. Biroq o‘zbekcha nomdagi “haqiqat” so‘zi va u bilan bog‘langan Mirzacho‘l makoni milliy tildagi ma’no qatlamini ham saqlab turadi. Bu o‘rinda milliy o‘zlik tilning jamoat hayotida qo‘llanishi, muayyan hududning nomlanishi va ijtimoiy tajribaning milliy tilda ifodalanishi orqali namoyon bo‘ladi.

“MILLATCHINING JAZOSI” HIKOYASI: ISM RAMZI VA MILLIY O‘ZLIK. Hikoyada milliy o‘zlik konsepti ism va rasmiy hujjatlar atrofida yuzaga kelgan ziddiyat orqali badiiylashtiriladi. Ism obrazning shaxsiy belgisi bo‘lish bilan birga, uning tili, oilaviy xotirasi va milliy mansubligiga daxldor ramziy detal vazifasini bajaradi. Ma’muriy idoradagi muloqotlar orqali muallif shaxs qadri bilan rasmiy tizim o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi; kinoya va kutilmagan vaziyatlar esa bu ziddiyatning ijtimoiy mazmunini kuchaytiradi.

Xayriddin Sultonning “Millatchining jazosi” hikoyasida milliy o‘zlikni anglash muammosi qahramon ismining noto‘g‘ri yozilishi bilan bog‘liq maishiy vaziyatdan boshlanib, shaxsning tarixiy xotirasi, milliy mansubligi va ijtimoiy hayotdagi huquqiy maqomi o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beruvchi badiiy-falsafiy muammo darajasiga ko‘tariladi. Asardagi “Ismimdagi bir harfning qurboniman...” epigrafik jumlasining o‘ziyoq voqealar mohiyatini belgilaydi: qahramon taqdiridagi ziddiyat uning ismidagi bitta harf bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu harf ortida til, tarix, davlat idoralari va insonning o‘zligini anglash jarayoni bilan bog‘liq muammolar mujassamlashgan. Yozuvchi ana shu kichik tafsilot orqali milliy o‘zlikning shaxsiy hayotdagi ahamiyatini ochib, uni Vatanga mansublik va tarixiy xotira bilan bog‘liq holda badiiy talqin qiladi. Milliy o‘zlik konseptining dastlabki badiiy ifodasi qahramon ismining imloviy jihatdan noto‘g‘ri yozilgani bilan bog‘liq. U pasportdagi “Jamolitdin” shaklini “Jamoliddin” tarzida tuzatishni talab qiladi va o‘z talabini til me’yori bilan asoslaydi: “o‘zbek tilida “Jamoliddin” degan ism “t” bilan yozilmaydi, ikkita “d” bilan yoziladi” [10; 37]. Bu yerda ism oddiy nomlash vositasi emas, balki shaxsning milliy til bilan bog‘liqligini ifodalovchi ma’naviy belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramon uchun bir harfning xato yozilishi talaffuz yoki imlo masalasidan tashqari, o‘z ismining ma’naviy qiyofasi buzilishi demakdir. Demak, yozuvchi ismga munosabat orqali milliy o‘zlikning inson o‘zini kim deb anglashi, qaysi til va madaniy muhitga mansub ekanini his qilishi bilan bog‘liq jihatini ochadi. Ushbu vaziyatda tarixiy xotira konsepti ham muhim badiiy vazifa bajaradi. Qahramon tug‘ilganlik haqidagi guvohnomani *“bundan ellik yil burun bir chalasavod tatar kampir yozib bergan”*ini ta’kidlar ekan [10; 38], hozirgi muammoning ildizi o‘tmishdagi ma’muriy amaliyotga borib taqalishini ko‘rsatadi. Bu tafsilotni muayyan millat vakiliga nisbatan salbiy munosabat sifatida emas, balki qahramon nuqtayi nazaridan hujjatlashtirishdagi xatoning tarixiy sharoit bilan bog‘liqligini anglatuvchi ifoda sifatida talqin qilish lozim. Muammoning asl sababi bir shaxsning savodsizligidagina emas, balki o‘tmishda rasmiylashtirilgan xatoning keyingi ijtimoiy hayotga ta’sir ko‘rsatishidadir. Xulosa qilib aytganda, Xayriddin Sulton nasrida badiiy konsept obraz, ramz va muallif pozitsiyasining o‘zaro ta’siri orqali shakllanadi. Obraz qadriyatni inson taqdiri va ma’naviy tanlovida gavdalantiradi; ramz voqea, predmet yoki manzaraga qo‘shimcha ma’no yuklab, konseptning semantik doirasini kengaytiradi; muallif pozitsiyasi esa bu ma’nolarning axloqiy-estetik yo‘nalishini belgilaydi. “Shodiyona”, “Mastona” va “Fojiona” hikoyalarida shaxsiy odatning ijtimoiy va oilaviy oqibatlari, vazirlar haqidagi hikoyalarda esa mansab, xotira va do‘stlik o‘rtasidagi munosabatlar orqali ushbu mexanizm aniq ko‘rinadi. To‘plamning boshqa hikoyalari ham konseptlarning huquqiy, oilaviy, milliy, ma’naviy va ijtimoiy ko‘rinishlarini o‘rganish imkonini beradi. Shunday qilib, adib nasrida qadriyatlar quruq nasihat tarzida emas, balki obraz taqdiri, hayotiy ziddiyat, ramziy ma’no va muallifning estetik munosabati birligida badiiylashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 243.
2. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlar lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 125.
3. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – B. 290.
4. Turaqulova M. Mualliflik va subyektivlik: nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
5. Xurramova M. Badiiy adabiyotlarda konsept tushunchasi // Science and Education. – 2023.
6. Mahmidjonov Sh. O‘zbek adabiyotshunosligida badiiy obraz masalasining qiyosiy talqini // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2023. – B. 520–524.
7. Muhammadiyeva M. Badiiy asarlarda ramziy obrazlarning o‘rni (qushlar obrazi misolida) // Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3, № 12. – B. 33–37.
8. Komilova M. Adabiy matnda muallif pozitsiyasi va subyektivlik muammosi // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – T. 3, № 10. – B. 91–93.
9. Xayriddin Sulton. Odamlardan tinglab: hikoya. – Toshkent: Adabiyot, 2020. – 376 b.